

MILLIONLAR KUTGAN KUN VA UNDA KEYINGI DAVR

Nabiyev Xasan Baxtiyorzoda

Guliston Davlat Pedagogika instituti,

Gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat fakulteti,

Tarix yo`nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada SSSRning turg'unlik holati, parchalanishi va undan keying davr haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: SSSR, M.Gorbachyov, jadallashtirish, qayta qurish, MDH, O'zbekiston.

20-asrning 70-80-yillarida SSSRda iqtisodiyotning rivojlanish sur'ati tobora pasayib, sarf xarajatlari ortib bordi. Ko'pgina mamlakatlar fan-texnika inqilobi tufayli xalq turmushida jiddiy ijobiy burilishga erishgan bir paytda SSSR bu jarayondan orqada qolib ketdi.[1]

1980-yillarning o'rtalarida SSSR tashqaridan juda qudratli davlat bo'lib ko'rinar edi. Mamlakat nisbatan kuchli iqtisodiyot, cheksiz tabiiy boyliklar va mustahkam mudofaa qudratiga ega edi. Aslida esa mamlakatda ko'plab hal qilinmagan muammolar to'planib qolgan bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning sifat ko'rsatkichlari yil sayin pasayib borardi. Mehnat unumdorligi amalda o'sishdan to'xtagan edi.[2]

Ishlab chiqarish texnologiyasi eskirgan, mahsulotlarning sifati past, ular sotilmasdan omborlarda to'planib qolayotgan edi. Buyruqbozlik boshqaruv usuli, mamlakatda keng tarqalgan "sansolarlik", "qog'azbozlik", "majlisbozlik" illatlari iqtisodiyotning o'z qonunlari va vositalari asosida rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda edi.

Odamlar mulkdan begonalashtirilgan, shu tufayli loqayd, sust, beparvo edilar, "xo'p-xo'p", "bajaramiz" deyishga o'rgangan oddiy ishtirokchilarga aylantirilgan edi.[1]

1982-yili L.Brejnev vafot etdi. Sovet jamiyatining inqirozi chuqurlashgan sharoitda saylangan yangi Bosh kotib Yuriy Andropov bu islohatlarga qarshi jadal kurash boshladi. Ammo Y.Andropov ham shu tizimning, mavjud muhitning "mahsuli" edi. U boshqarishda qattiqo'llik, avtoritar, buyruqbozlik usullaridan foydalandi. 1984-yil fevralda Y.Andropov vafot etgandan so'ng hokimiyatga kelgan Konstantin Chernenko keksa va kasalmand kishi bo'lib, uning saylanishi katta xato, tugab borayotgan SSSRning ramzi bo'ldi. 1985-yil 10-martda K.Chernenko vafot etdi. Bu paytga kelib partiya va davlat boshqaruvidagi hatto eng konservativ kuchlar ham "intellektual va siyosiy jihatdan zaif, qarashlari qoloq bo'lgan yana bitta Chernenkoga mamlakat bardosh bera olmaydi" degan yakdil xulosaga keldi.[2]

1985-yil mart oyida KPSS MK Bosh kotibi etib M.S.Gorbachyov saylandi. Sovet Ittifoqi tarixida “qayta qurish” nomini olgan davr boshlandi. KPSS yangi rahbariyatining bosh vazifasi, “davlat sotsializmi tizimining parchalanishining oldini olishga, uning ayrim deformatsiya holatlarini toʻgʻrilashga, qoʻpol va aql bovar qilmaydigan usullardan voz kechishga” qaratilgan edi. Bu harakatlar ostida Gorbachyov qonunlashtirilgan kichik nodavlat korxonalar, davlat firmalariga muxtoriyat berilishga ruxsat berdi va Sovet Ittifoqi hududida oʻz ishlari uchun masʼul boʻlishga respublikalarni undadi. 1987-yil oʻrtalaridan “oshkoralik” siyosati eʼlon qilindi. Unga koʻra mamlaktda ommaviy axborot vositalari ustidan senzura yumshatildi, kutubxonalarda “mahsus fondlar” yoʻqotildi, taqiqlangan kitoblarni chop etishga ruxsat berildi va hokazolar.

1987-yil dastlabki “jadallashtirish” shiori “qayta qurish” iborasi bilan almashtirildi. “Qayta qurish” iborasi, siyosiy tizimni demokratlashtirishga oʻtishni yuqoridan amalga oshirishni va iqtisodda bozor munosabatlariga imkon yaratishni koʻzda tutgan edi.

1988-yilda konstitutsion islohotlar amalga oshirildi. Hokimiyatning oliy organi etb doimiy faoliyat olib boruvchi Oliy Sovetni saylaydigan “Xalq deputatlari syezdi” boʻldi. Huquqiy davlat qurish shiori KPSSni davlat boshqaruvidan chetlatishga qaratilgan belgi boʻldi.[3]

Sobiq SSSRga kirivchi respublikalar rasman teng va suveren deb yuritilsada, amalda qaram edi. Oʻzbekiston Respublikasining rahbari I.A.Karimov respublikalar bilan SSSR oʻrtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qoʻyishni koʻzda tutadigan yangi federativ shartnoma ishlab chiqish zarurligi toʻgʻrisida oʻz fikrini aytib oʻtgandi. Biroq Markaziy hokimiyat respublikalarga erkinlik berishni xoxlamas edi. Markazning qaysarligi hamda respublikalar jamoatchiligining tasiri ostida markazdan ajralish harakati kuchayib bordi.[1]

1988-yil 16-noyabrda Estoniya Oliy Soveti “Estoniya SSRning davlat suvereniteti toʻgʻrisida deklaratsiya”ni qabul qildi. 1990-yil 4-mayda Latviya oʻz mustaqilligini eʼlon qildi. 1990-yil 11-martda Litva Oliy Soveti Litva Respublikasining mustaqilligini eʼlon qildi. 1991-yil 9-aprel kuni Gruziya oʻz mustaqilligini eʼlon qildi.[4]

Markaziy hokimiyat jamoatchilikning talabi ostida Ittifoq shartnomasini yangilash zarurligini eʼtirof etishga majbur boʻldi. Butun Ittifoq referendumini SSSR Oliy Soveti Ittifoq shartnomasini oʻzgartirish SSSRni teng huquqli severen respublikalar Federatsiyasi sifatida yangilash xususida xalqning fikrini bilish maqsadida 1991-yil 17-mart kuni Butun Ittifoq referendumini oʻtkazishga qaror qildi. 1991-yil 20-fevralda Oʻzbekiston Oliy Kengashining rayosati referendum oʻtkazishni maqulladi va SSSR Oliy Soveti tomonidan tayyorlangan byulleten bilan birga yana bitta qoʻchimcha byulletenni ovozga qoʻyishga qaror qildi. Qoʻchimcha byulletenga “Siz

O'zbekistonning mustaqil, teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishga rozimisiz? “ degan savol qo'yildi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning 93 foizi bu savolga “Ha” deb javob berdilar. Demak, o'zbekistonliklar o'z mamlakatini mustaqil davlat sifatida federativ ittifoqda bo'lishini, O'zbekistonning suveren respublika sifatida rivojlanishini yoqlab ovoz bergan edilar. 1991-yil iyul oyining oxirlarida Novo-Ogoryovoda yangi shartnoma loyihasini uzil-kesil tayyorlash uchun Markaz vakillari va Respublika rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Markazni ham, Respublikalar rahbarlarini ham qanoatlantiradigan “Mustaqil Davlatlar Ittifoqi” to'g'risida shartnoma loyihasi tayyorlandi. Ammo hamma rozi bo'lgani holda shartnomani imzolash 1991-yil 20-avgust kuniga qoldirildi. M.S. Gorbachyov Foros (Qrim)ga dam olish uchun jo'nab ketdi. [1] Lekin 1991-yil 19-21-avgust Sovet Ittifoqida davlat to'ntarishi sodir etildi. Mamlakatda mavjud siyosiy hokimiyat ag'darilib, favqulodda holat joriy etildi va hokimiyat Favqulodda holat davlat komiteti qo'liga o'tdi. Ularning maqsadlari Ittifoq hududida yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikni qo'lga kiritishlariga yo'l qo'ymaslik edi. Ana shunday vaziyatda O'zbekiston SSR Oliy kengashining Rayosati, O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi 1991-yil 21-avgustda qo'shma majlis o'tkazib, unda “SSSR GKCHPning O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi va qonunlariga zid hujjatlarni O'zbekiston hududida amal qilmaydi” degan qaror qabul qildi. [5]

19-21-avgust kunlari Moskvada fojiali hodisalar ro'y berdi. Rossiya Fedsaratsiyasi rahbaryati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagi Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnachilar qamoqqa olindi. Gorbachyov Prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahvolga tushib qoldi. Markaziy hokimiyat falaj bo'lib, harakatsiz qolgan edi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi. Shu tariqa SSSR parchalana boshladi. [1]

1991-yil 24-avgustda Ukraina, 27-avgustda Moldaviya, 31-avgustda O'zbekiston va Qirg'iziston, 9-sentabrda Tojikiston, 18-oktabrda Ozarbayjon respublikalari o'z mustaqilliklarini e'lon qilishdi. 1991-yil Armanistonda respublika maqomi bo'yicha referendum o'tkazildi. Unda qatnashganlarning ko'pchiligi Armanistonning SSSR tarkibidan chiqish uchun ovoz berdi. Turkmanistonda 26-oktabrda referendum o'tkazilib, unda qatnashganlarning aksariyati Turkmaniston mustaqilligi uchun ovoz berdi. 16-dekabrda Qozog'iston so'nggi bo'lib o'z mustaqilligini e'lon qildi. [4]

1991-yil 8-dekabrda Belovejskaya Pushada (Belorussiya) Rossiya, Ukraina, Belorussiya prezidentlari B.N. Yelsin, L.M. Kravchuk va S.S. Shushkevich SSSR tugatilgani va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil topganligi to'g'risida shartnomani imzoladilar. 21-dekabr Qozog'iston poytaxti

Olmaota shahrida MDH tarkibiga sobiq ittifoqning Boltiqbo'yi respublikalaridan tashqari barcha boshqa respublikalari qo'shildi. MDH taraqqiyot bosqichidagi ittifoq edi. MDH doirasida Markaziy Osiyo davlatlari orasida o'ziga xos aloqalar kuchaytirildi. Kollektiv xavfsizlik tashkiloti (ODKB) shartnomasi tuzildi. MDH mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy va savdo integratsiya jarayonini shakllantirish maqsadida YevrAzeS tashkil etildi. MDHning Ustaviga muvofiq har yili tashkilotga a'zo mamlakat rahbarlarining sammiti bo'lib o'tadi.[3]

Xulosa: Qisqacha xulosa qilib aytganda SSSR parchalanishi ko'zga namoyon bo'lib turgandi. Bu parchalanish ya'ni mustamlakalarning mustaqil bo'lishi "millionlarning orzusi" edi. SSSR parchalangandan so'ng ham MDH orqali avvalgi mustamlakalari bilan aloqani saqlab qola oldi. Ming afsuski hozirda ham Rossiyaning potsovet davlatlariga tasiri kuchli.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Q.Usmonov, M.Sodiqov. O'zbekiston tarix, Toshkent 2005 [222,229,230,231,232-betlar]
2. Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev, N.Hakimov. 10-sinf Jahon tarix, Toshkent 2022 [127,128-betlar]
3. E.Nuriddinov, Sh.Zokirov, F.Ismatullayev. Jahon tarix Eng yangi davr, Toshkent 2021 [176,177,178,179-betlar]
4. Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. 11-sinf Jahon tarix, Toshkent 2018 [31,35,23,27,42,36,33,39-betlar]
5. N.Jo'rayev, A.Zamonov. 11-sinf O'zbekiston tarix, Toshkent 2018 [5,6-betlar].